**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TOJIBOYEV SARVAR ZAFAROVICH**

# KATTA RAQAMLI MA’LUMOTLARNI (BIG DATA) FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIB SOLISH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 347(043.5)(575.1)**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TOJIBOYEV SARVAR ZAFAROVICH**

# KATTA RAQAMLI MA’LUMOTLARNI (BIG DATA) FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIB SOLISH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1534 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Rustambekov Islambek Rustambekovich**<br>yuridik fanlar doktori (DSc), professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Ismanjanov Akbar Anvarjanovich**<br>yuridik fanlar doktori (DSc) |
| | **Bozarov Sardor Soxibjonovich**<br>yuridik fanlar doktori (DSc), professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti** |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1414-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 21-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 21-avgustdagi 84-son reyestr bayonnomasi).

**B.B. Samarxodjaev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

**D.Y. Xabibullayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**B.K. Xodjayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda XXI asrning oxirgi o‘n yilligi axborot texnologiyalari sohasida erishilgan ulkan yutuqlar bilan ajralib turuvchi bosqich sifatida qaralmoqda. Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va ayniqsa, katta raqamli ma’lumotlar (Big Data) texnologiyasining paydo bo‘lishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, shu jumladan huquqiy munosabatlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Big Datani to‘plash, saqlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish jarayonida shaxsiy hayot daxlsizligi, ma’lumotlarni himoya qilish, ma’lumotlar egasining roziligi, intellektual mulk va algoritmik qarorlar uchun javobgarlik kabi dolzarb huquqiy muammolar yuzaga chiqmoqda. Shu bilan birga, Big Data asosida shakllanadigan algoritmik boshqaruv va avtomatik qaror qabul qilish tizimlari inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga qanday ta’sir qilayotganini baholash va nazorat qilish masalasi xalqaro hamjamiyat diqqat markazida turibdi. Shu bois, bugungi kunda Big Data texnologiyalarining imkoniyatlari faqat texnik jihatdan emas, balki huquqiy nuqtai nazardan ham chuqur o‘rganishni talab etmoqda.

Jahonda Big Data texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, boshqaruv va huquqiy munosabatlar tizimida keng qo‘llanila boshladi. Chunonchi, *Jahon Banki va OECD* ma’lumotlariga muvofiq hamda *IDC kompaniyasi* tomonidan e’lon qilingan *(The Data Age 2025)*[1] hisobotida ko‘ra 2025-yilda dunyo bo‘ylab yaratilgan, yig‘ilgan va iste’mol qilingan ma’lumotlar hajmi *181 zettabaytga* yetishi kutilmoqda. Bu 2024-yilga nisbatan *23.13% o‘sishni* anglatadi[2]. Shuningdek, global Big Data analitikasi bozor qiymati *2025-yilda $ 396.4 milliardni* tashkil etsa, 2029-yilga kelib bu raqamlar *$ 655.53 milliardga* yetishi taxmin qilinmoqda[3].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, masofaviy xizmatlar va boshqa shu kabi innovatsion yo‘nalishlarning jadal rivojlanishi natijasida yuridik munosabatlarda katta hajmdagi axborotlar to‘planishi, saqlanishi va qayta ishlanishi ehtiyoji ortmoqda. Aynan shu jarayonlar zamirida katta raqamli ma’lumotlarning huquqiy tartibga solinishi dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli farmoyishi ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llashning huquqiy asoslarini shakllantirish, xususan, kripto-aktivlar, shu jumladan mayning aylanmasini rivojlantirish, shaxsi ko‘rsatilmagan ma’lumotlarning sezilarli massivlarini (“Big Data”) yig‘ish va qayta ishlashni huquqiy tartibga solish, elektron tijoratdan

[1] Reinsel D., Ghantz J., Rhydning J. The Digitization of the World. From Edge to Core // The Data Age 2025 https://www.seagate.com/files/www-content/our-story/trends/files/idc-seagatedataage-whitepaper
[2] https://www.demandsage.com/big-data-statistics/
[3] https://www.wipo.int/edocs/mdocs/scp/en/scp_31/scp_31_c_ai_wipo.pdf

foydalanish, elektron maydonchalar orqali xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni kengaytirish[1] vazifalari aniq qilib belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining joriy holati va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini hisobga olgan holda mamlakatimizda sun’iy intellektni keng qo‘llash, jadal rivojlantirish maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi[2]. Strategiyada ilk marta Big Dataning huquqiy ta’rifi aniqlangan bo‘lsa-da, uni tartibga solishuvchi huquqiy mexanizmlar ochiqligicha qolmoqda.

Big Data texnologiyasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy yoki texnologik jarayonlarda, balki huquqiy munosabatlarni shakllantirishda, ularni tahlil qilish va tartibga solishda ham muhim o‘rin egallamoqda. Masalan, Big Data asosida ishlovchi algoritmlar shartnomalar tuzish, tahlil qilish, iste’molchilarning xatti-harakatlarini bashorat qilish, kredit reytinglarini baholash, hatto sud qarorlarini modellashtirish kabi huquqiy yo‘nalishlarda keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, diskriminatsiyaga qarshi kurash kabi dolzarb huquqiy masalalar bilan ham bevosita to‘qnash keladi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli rivojlanish siyosati doirasida qator huquqiy hujjatlar, jumladan, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun, “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Biroq Big Data kategoriyasi ushbu huquqiy manbalarda bevosita va aniq belgilab qo‘yilmagan. Bu esa mazkur sohada huquqiy bo‘shliqlar, tushunmovchiliklar va qo‘llanilishdagi ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, Big Dataning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblangan *hajm, xilma-xillik, qiymat, tezlik va ishonchlilik (5V modeli)* fuqarolik-huquqiy normalar bilan to‘liq uyg‘unlashmaydi. Masalan, axborotlar asosida avtomatik qarorlar qabul qilinishi, algoritmik diskriminatsiya holatlari yoki intellektual mulk huquqlari doirasidagi masalalar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi (2003-yil), “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi (2006-yil), “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2003-yil), “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi (2022-yil), “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi (2019-yil), “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi (1993-yil), “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi (2022-yil), “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi (2004-yil), “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi (2015-yil) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi”, O‘zbekiston

[1] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019-y., 08/19/5464/2891-son
[2] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.10.2024-y., 07/24/358/0825-son

Respublikasi Axborot kodeksi loyihasi va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning II bo‘limida belgilangan mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga doir ustuvor yo‘nalishi asosida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda Big Dataning fuqarolik-huquqiy tartibga solish, uning fuqarolik huquqi institutlari bilan aloqasi yo‘nalishida fragmentar ravishda ilmiy ishlanmalar uchraydi. Ushbu mavzuga aloqador bo‘lgan axborot, ma’lumotlar bazasi, tijorat siri (know-how), shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda intellektual mulkka oid mavzularda O.Oqyulov, V.Ergashev, B.Toshev, N.Imomov, S.Gulyamov, I.Rustambekov, O.Xazratqulov, Q.Mehmonov, S.Bozarov va A.Yakubov[1] va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu bilan birga, milliy huquqshunos olimlar A.Ismanjonov tomonidan axborotning fuqarolik-huquqiy maqomi, A.Ubaydullayeva tomonidan sun’iy intellekt tomonidan yaratiladigan intellektual mulkni tartibga solish, I.Yakubova tomonidan shaxsiy nomulkiy munosabatlar, shuningdek N.Raimova tomonidan konfidensial axborotdan foydalanish masalalari ustida ilmiy ish olib borilgan.

Taqdiqotchi S.Mamanazarov tomonidan Big Dataning fuqarolik huquqiy maqomi mavzusida ish olib borilgan bo‘lishiga qaramasdan, unda asosan Big Dataning shaxsiy nomulkiy huquqlar bilan nisbati tadqiq qilingan. Qolaversa, ilmiy ishlanmada tadqiqotchi Big Dataning fuqarolik huquqiy rejimiga to‘xtalar ekan uning mulk huquqi va intellektual mulk huquqi bilan aloqasi, shuningdek ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik siyosatiga alohida e’tibor qaratgan. Garchi tadqiqotchi tomonidan Big Dataning fuqarolik huquqiy rejimi ifodalashga harakat qilingan bo‘lsa-da, lekin mavzu kompleks sifatida, ya’ni shartnomaviy konstruksiya, intellektual mulk huquqi instituti qoidalari, zararni qoplash, himoya qilish usullari hamda raqobat qonunchiligi qoidalari kabi jihatlari tadqiq qilinmagan.

MDH mamlakatlarida A.Sergeyev, V.Lopatin, M.Rojkova, V.Vaypan, L.Sannikova, S.Poratasov, N.Polyanskaya, A.Savelyov, B.Totskiy va L.Chernyak[2]lar tomonidan Big Dataning huquqiy maqomi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlarda Big Dataning intellektual mulk huquqi va uning institutlar bilan nisbati Daniel Gervais, J.Cohen, J.Ginsburg, W.Fisher, Reto M. Hilty, Jörg Hoffmann, Stefan Scheuerer, Jenny Quang, Luke Ali Budiardjo tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, Big Dataning mulkiy huquqlar bilan aloqadorligi masalasi esa M.Lemley, R.Merges, Peter DiCola, James Manyika, Michael Chui,

[1] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan
[2] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan

Brad Brown, Jacques Bughin, Richard Dobbs, Charles Roxburgh'larning asarlarida qayd etilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tajribasida Big Dataning huquqiy holati va kelajagi bo'yicha Madeleine de Cock Buning, Isabella Lorenzoni, M.Stucke, A.Grunes[1]lar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

Mazkur olimlar tomonidan Big Data munosabatlari bilan bog'liq u yoki bu masalalar, chunonchi Big Data jarayonlariga chambarchas bog'liq sanalmish intellektual mulk huquqi, shartnoma huquqi, delikt majburiyatlari hamda raqobat qonunchiligi kabi masalalar ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda Big Datani fuqarolik-huquqiy tartibga solish, ya'ni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish, intellektual mulk huquqi qoidalarini qo'llash, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash kabi asosiy va dolzarb masalalar mamlakatimizda hali alohida tadqiqot obyekti sifatida kompleks ravishda o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Sanoat mulki obyektlarining fuqarolik-huquqiy maqomi: nazariya va amaliyot" mavzusidagi amaliy loyihasi (2021 – 2023-yillar) doirasida bajarilgan.**

**Tadqiqotning maqsadi** Big Data va unga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish, ushbu sohadagi qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

Big Data tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar va uning huquqiy tabiatini aniqlash;

Big Data maqomi va jarayonini huquqiy tartibga solish mexanizmini shakllantirish bo'yicha tavsiya berish;

Big Dataning fuqarolik huquqi institutlaridagi huquqiy nisbatlarini aniqlash, bunda intellektual mulk huquqi institutining mualliflik huquqi, ma'lumotlar bazasi, patent huquqi hamda tijorat siri rejimi qoidalarini Big Data jarayonlarida qo'llash sharoitlarini tahlil qilish;

Big Datani shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning hamda ushbu sohadagi shartnoma konstruksiyalarini qo'llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berish;

intellektual mulk huquqi instituti qoidalarini qo'llash orqali Big Datani tartibga solish ta'sirini aniqlash;

Big Data orqali yetkazilgan zararni qoplash masalalarini tahlil qilish;

Big Datani fuqarolik-huquqiy himoya qilish usullarini qayd etish hamda yangi usullarini joriy qilish;

Big Data munosabatlarini xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyoslash orqali uni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasida Big Dataga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

[1] Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Big Datani fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Big Datani fuqarolik-huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik normalari hamda ilmiy-nazariy jihatlar va ushbu sohadagi huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq muammolar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiy va tizimli usul, analiz va sintez usuli, qiyosiy-huquqiy va tahlil qilish usuli, normativ-huquqiy va amaliy tahlil usuli, umumlashtirish, mantiqiylik, huquqni qo‘llash va sud amaliyotini tahlil qilish kabi usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

axborot resursi deganda axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e’lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborot tushunilishi asoslantirilgan;

avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov beriladigan hamda mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlov beriladigan shaxsga doir ma’lumotlar shaxsga doir ma’lumotlar bazalari ro‘yxatdan o‘tkazilmasligi asoslab berilgan;

biometrik va genetik ma’lumotlarni elektron shaklda saqlashda ushbu ma’lumotlar shifrlangan va kriptografik yoki boshqa usullarda himoyalangan bo‘lishi zarurligi asoslantirilgan;

mulkdor va (yoki) operator biometrik va genetik ma’lumotlar qayd etilgan moddiy jismlarning o‘g‘irlanishi, o‘chirilishi, yo‘q qilinishi, ruxsatsiz olinishi, o‘zgartirilishi hamda nazoratsiz qoldirilishining oldini oluvchi tegishli xavfsizlik choralarini ko‘rishi lozimligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilar iborat:

mamlakatimizda axborotga oid siyosatni takomillashtirish hamda Big Data munosabatlarini huquqiy tartibga solishda Big Data tushunchasi, maqomi va uning o‘ziga xos xususiyatlari ishlab chiqilgan hamda ular ishlab chiqilishi zarur bo‘lgan Axborot kodeksida aks etishi lozimligi asoslantirilgan;

Big Data natijasini raqamli aktiv sifatida talqin qilish mumkinligi, shuningdek intellektual mulk obyektlari ro‘yxatiga yangi noan’anaviy bo‘lgan obyekt sifatida Big Datani qo‘shish orqali intellektual mulk obyektlari ro‘yxati kengaytirish lozimligi asoslab berilgan;

Big Data munosabatlarini mualliflik huquqi, ma’lumotlar bazasi, patent huquqi hamda tijorat siri instituti qoidalari bilan tartibga solish murakkabligi hisobiga mazkur munosabatlarga nisbatan maxsus sui generis huquqiy rejimi joriy etish eng maqbul yechim ekanligi asoslab berilgan;

xorijiy davlatlar qonunchiligi tajribasi hamda adolatli foydalanish (fair use) tamoyili mazmunidan kelib chiqqan holda milliy mualliflik qonunchiligiga Matn va ma’lumot qazib olish (Text and data mining, TDM) bo‘yicha xavfsiz hudud (safe harbor)ga oid qoidalar kiritish zarurligi asoslab berilgan;

Big Data va shaxsga oid ma’lumotlarda shartnoma oldi muzokaralar instituti, ayniqsa akseptlash bilan bog‘liq jarayon murakkab shaklda ifodalanishi lozimligi asoslab berilgan;

Big Data munosabatlariga oid Axborotlarini tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnoma (Non-disclosure agreement, NDA), Ma’lumotlarni ishlash shartnomasi (Data Processing Agreement – DPA) kabi shartnomalarining yangi turlarini huquqni qo‘llash amaliyotida keng foydalanish borasida takliflar ilgari surilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosa va amaliy takliflardan Big Datani fuqarolik-huquqiy tartibga solish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek “Fuqarolik huquqi”, “Axborot huquqi”, “Kiber huquq” hamda “Shaxsiy ma’lumotlar muhofazasi” kabi fanlarini o‘qitish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Big Datani huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek sun’iy intellekt va Big Data texnologiyasi amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Big Datani fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

axborot resursi tushunchasiga oid taklif “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ–683-sonli Qonuni 3-moddasining 1-bandida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 30-avgustdagi 64-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi axborot tizimi tarkibi va shaklining huquqiy asosini yaratishga xizmat qilgan;

avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov beriladigan hamda mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlov beriladigan shaxsga doir ma’lumotlar shaxsga doir ma’lumotlar bazalari ro‘yxatdan o‘tkazilmasligi haqidagi taklif Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi 71-son qarori bilan tasdiqlangan “Shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining davlat reyestri to‘g‘risida”gi nizomning 5-bandi ikkinchi qismi yettinchi va sakkizinchi xatboshilarida qayd etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2025-yil 30-iyundagi 35-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi shaxsga doir ma’lumotlar bazasi sifatida talqin qilinmaydigan holatlarni aniqlashga xizmat qilgan.

biometrik va genetik ma’lumotlarni elektron shaklda saqlashda qo‘llaniladigan himoya usullariga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan “Biometrik va genetik ma’lumotlar mavjud bo‘lgan moddiy jismlarga hamda bunday ma’lumotlarni shaxsga doir ma’lumotlar bazalaridan tashqarida saqlash texnologiyalariga oid talablar to‘g‘risida”gi nizomning 4-bandida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik

ta’minlash departamentining 2025-yil 30-iyundagi 35-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi shaxsga oid ma’lumotlarni himoya qilish usullarini, shuningdek, ushbu yo‘nalishda qo‘llaniladigan xavfsizlik choralarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

mulkdor va (yoki) operator biometrik va genetik ma’lumotlar qayd etilgan moddiy jismlarni saqlashga oid tegishli xavfsizlik choralarini ko‘rishi lozimligi haqidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan “Biometrik va genetik ma’lumotlar mavjud bo‘lgan moddiy jismlarga hamda bunday ma’lumotlarni shaxsga doir ma’lumotlar bazalaridan tashqarida saqlash texnologiyalariga oid talablar to‘g‘risida”gi nizomning 6-bandida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2025-yil 30-iyundagi 35-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi biometrik va genetik ma’lumotlar qayd etilgan moddiy jismlarning o‘g‘irlanishi, o‘chirilishi, yo‘q qilinishi, ruxsatsiz olinishi, o‘zgartirilishi hamda nazoratsiz qoldirilishining oldini oluvchi tegishli xavfsizlik choralarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘qqizta paragrafdan iborat uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Katta raqamli ma’lumotlarning (Big Data) umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida (Big Data) tushunchasi va uning belgilari, unga oid qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari, Big Dataning fuqarolik huquqi institutlaridagi huquqiy nisbati, shuningdek Big Dataning axborot va ma’lumotlar bazasi (database)dan farqli jihatlari, katta raqamli ma’lumotlarni fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi turli yondashuvlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi Big Data tushunchasini tahlil qilishda ko‘plab iqtisodchi va boshqa soha olimlar (Klifford Linch, J.Manyika, B.Jacques, M.Loukides) va chet el huquqshunos (Daniel Gervais, J.Cohen, J.Ginsburg, W.Fisher, Reto M. Hilty, Jörg Hoffmann, Stefan Scheuerer, Jenny Quang, Luke Ali Budiardjo, Madeleine de Cock Buning, Isabella Lorenzoni, M.Stucke, A.Grunes, M.Rojkova, V.Vaypan, L.Sannikova, N.Polyanskaya) hamda milliy huquqshunos (S.Gulyamov, I.Rustambekov, Q.Mehmonov, S.Bozarov, S.Safoyeva, A.Ubaydullayeva hamda S.Mamanazarov) olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Shu bilan birga, tadqiqotchi tomonidan Big Data tushunchasining **mazmuniy va etimologik tavsifini** aniqlash maqsadida Gartner, Nessi kabi AKT sohasidagi nufuzli hamjamiyatlar va McKinsey Global instituti hisobotlari, shuningdek Techopedia lug‘atiga murojaat qilingan.

Dissertatsiya ishida Big Data va uning o‘ziga **xos belgilari** (xususiyat)lari sifatida *“Big Data 5V modeli”* tahlil qilingan. Chunonchi, bunda bir guruh olimlar (D.Laney,Daniel Gervais, J.Cohen, J.Ginsburg, W.Fisher) katta raqamli ma’lumotlar uchun *hajm (volume), xilma-xillik (variety), qiymat (value), tezlik (velocity) va ishonchlilik (veracity)* belgilari birlamchi ekanligi qayd etilsa, boshqa bir olimlar (Stella Hrehova, Jenny Quang, Luke Ali Budiardjo, Madeleine de Cock Buning) *joy (venue) va haqiqatlilik (validity)* kabi xususiyatlar ham Big Datada asosiy ekanligini isbotlashga harakat qilishgan.

Dissertant tomonidan Big Data jarayonlari **qay tartibda ishlashi** ilmiy ishda batafsil yoritib berilgan. Chunonchi, Big Data quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Big Data uchun *ma’lumotlar korpusi* shakllantiriladi;
2. *“Matn va ma’lumotlarni qazib olish” (Text and Data Mining (TDM))* tizimi orqali muayyan manbalardan ma’lumotlar yig‘iladi;
3. To‘plangan ma’lumotlar *ML (machine learning)* hamda *Deep learning* tizimi orqali tahlil qilinadi va ishlov beriladi;
4. Big Data natijasi *bulutli texnologiya, mahalliy serverlar, Data lake* va *warehouse* hamda ayrim hollarda *blockchain texnologiyalarida* saqlanadi va boshqariladi;
5. SI vositalari yordamida amalga oshiriladigan *ma’lumotlar to‘plami* sifatida yakuniy natija holatda qayd etiladi.

Tadqiqot ishida Big Data uchun **manba** sifatida quyidagi 3 ta ko‘rinish e’tirof etilgan:

*Birinchi - hukumat ma’lumotlari (Open data),* bunda asosan davlat organlari va idoralari tomonidan to‘planadigan shaxsiy va shaxsiy bo‘lmagan axborotlar.

*Ikkinchi – elektron platforma (e-platforma) yoki boshqa shakldagi axborot texnologiyalariga oid xizmatlar*da foydalanuvchi, iste’molchi va tijorat maqsadida ta’minlanadigan axborotlar.

*Uchinchi – foydalanuvchi tomonidan generatsiyalashgan axborotlar* (user generated data) bo‘lib, odatda kuki fayllar (cookies), internet xizmatlari provayderi ma’lumotlari (Internet Service Provider (ISP) data) hamda GPS ma’lumotlari (transport vositasining aniq geografik joylashuvi, sayohatlar yo‘nalishi)ni o‘z ichiga

oladi. Mazkur ma’lumotlar *tizimlashgan (SQL (Structured Query Language))* yoki *tizimlashmagan (NoSQL ((Non-Structured Query Language)) tizimlar, Hadoop, Spark, Cassandra, MongoDB, Hive* kabi texnologiyalar asosida ishlanishi mumkinligi qayd etilgan. Aynan shu jihati bilan Big Data ma’lumotlar bazasi bilan nisbati aks etishi dissertant tomonidan alohida urg‘u berilgan.

Tadqiqot ishida Big Data *a) texnologiya; b) ma’lumotlar to‘plami; c) ma’lumotlar va texnologiyalar uyg‘unlashgan kompleks institut* hamda *d) huquqiy fenomen* sifatida ilmiy izlanish olib borilgan. Bunda Big Datada sun’iy intellekt vositalari yordamida amalga oshiriladigan *ma’lumotlar to‘plami sifati*da huquqiy asoslantirilgan xulosaga kelingan. Shundan kelib chiqib, *Big Data* tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’riflari keltirib o‘tilgan:

*“Big Data – sun’iy intellekt vosita (algoritm)lari yordamida ma’lumotlar to‘plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish va qayta ishlash jarayonlarini muvofiqlashtiradigan, shuningdek katta hajmdagi yuqori tezlikda avtomatlashtirilgan ma’lum qiymatdagi turli-xil manbalardan tashkil topadigan ma’lumotlar to‘plami”.*

Bunda Big Datada asosiy jihat sifatida ma’lumotlar to‘plami ma’lum sun’iy intellekt vositalari yordamida qayta ishlash imkoniyatlarining mavjudligi bilan belgilanadi, degan xulosaga kelindi.

Bugungi kunga kelib Big Dataga oid bo‘lgan jarayonlarni huquqiy tavsiflash, uning maqomini belgilash, mazkur jarayonni huquqiy tartibga solish kabi vazifalar huquq hamjamiyatining oldida turgan dolzarb masalalar sirasiga mansubdir. Dissertant firkircha, Big Dataga oid to‘g‘ridan-to‘g‘ri, mazmuniy qarashlar hozirgacha normativ-huquqiy hujjatlar fragmentar tarzda o‘z aksini topgan, xolos. Bu kabi holatlarda Big Data fenomeni va jarayonlariga huquqiy tavsif berish uchun sohaga oid doktrinalar yoki huquq prinsiplariga murojaat qilish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi. Dissertatsiya ishida Big Dataga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid dunyo bo‘yicha tan olingan *a) Ma’lumotlar xavfsizligi doktrinasi (Data Security Policies); b) shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish doktrinasi (General Data Protection); c) ma’lumotlar boshqaruvi doktrinasi (Data Governance); d) xalqaro ma’lumotlar oqimi doktrinasi (International Data Flow)* kabi huquqiy doktrinalar mazmuni qayd etilgan. Xususan, disseratsiya ishida milliy qonunchilikka *shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish doktrinasi (General Data Protection)* asosida ma’lumotlarni to‘plashga rozilik olish masalasi, qayta ishlashning shaffofligi, ma’lumotlar portabelligi huquqi; “unutilish huquqi”ni ta’minlash hamda avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish kabi yangi chaqiruvlarga sabab bo‘layotganligi hamda uni bartaraf qilish uchun asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi qarashlarida hamda *Complexity Theory (Murakkablik nazariyasi)* ga ko‘ra, Big Data murakkab jarayon va turli xil institutlardan iborat bo‘lganligi uchun Big Data jarayonlarini yagona qonunchilik bilan tartibga solish imkonsiz sanaladi. Big Dataga oid jarayonlarda axborot yoki ma’lumotlar birlamchi bo‘lishi, tabiiy. Ushbu nuqtai nazardan, Big Data maqomi va unga oid jarayonlarini huquqiy tartibga solish asoslari va uning rivojlanish tendensiyalarini shartli ravishda ikki guruh orqali tizimlashtirish mumkin. Ushbu guruhlarning dastlabkisi — *qonun*

*hujjatlari* bo‘lsa, ikkinchisi — *qonunosti hujjatlaridir*. Big Data mazmunan olib qaraganda ma’lumot va unga ishlov bera oladigan texnologiyalar hosil qilishi, tabiiydir. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda Big Dataga oid jarayonlar *qonun analogiyasi* asosida “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2003-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi (2022-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi (2019-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi (1993-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi (2022-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi (2004-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi (2015-yil) kabi axborot sohasidagi qonunlar orqali tartibga solinib kelinayotganligi dissertatsiya ishida alohida ta’kidlangan.

Dissertatsiyada qonunosti hujjatlar ham sezilarli darajada tahlil qilingan, bunda eng ahamiyatli sanalgan qonunchilik hujjatlari o‘rganib chiqilgan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” Big Dataga oid huquqiy ta’rif taqdim etishi bilan birga, qaysi sohalarda qo‘llanilishi hamda qaysi usulda tartibga solinishi mumkinligi haqidagi savollarga javob taqdim qila olgan. Strategiyaga muvofiq *“katta ma’lumotlar”* — hajmi, xilma-xilligi, tezligi va (yoki) o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadigan, samarali saqlash, boshqarish va tahlil qilish uchun talab etiladigan keng *ma’lumotlar to‘plami* sifatida qayd etilgan.

Muallif dissertatsiyada Big Dataning fuqarolik huquqidagi obyekt sifatidagi turli yondashuvlarni *(a) nomoddiy obyekt, b) intellektual mulkning yangi noa’nanaviy obyekti (data as intellectual property), c) raqamli aktiv (data as digital asset) hamda d) tijorat siri (data as trade secret))* tahlil qilgan va ularni O‘zbekiston qonunchiligi bilan solishtirgan.

Tadqiqotchi tomonidan Big Data milliy fuqarolik qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil nomoddiy obyekt sifatida Fuqarolik kodeksining 81-moddasida nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, o‘z mohiyatiga ko‘ra, raqamli shaklda mavjud bo‘lib, jismoniy substansiyaga ega bo‘lmagan axborotlar yig‘indisi bo‘lganligi sababli u **nomoddiy obyekt sifatida** talqin qilinishi mumkinligi hamda mazkur nuqtai nazar Big Datani huquqiy obyekt sifatida e’tirof etishga imkon berishini ta’kidlanadi. Bunda asosiy vazifa nomoddiy obyekt sifatidagi Big Dataning axborotdan farqli jihatlari qayd etilib, asosiy farqlovchi belgisi uning *qiymati* hisoblanib, bu quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarda ifoda etiladi:

1. fuqarolik huquqlari subyektining ma’lum ehtiyojlarini qondirish va qiziqishini uyg‘otish qobiliyati, xususan, noyob tovarlar yoki xizmatlar yaratish yoki Big Data tahlili asosida samaraliroq korporativ harakatlarni amalga oshirish orqali;

2. ma’lum va cheklangan shaxslar doirasi uchun axborotning potensial (Big Data xomashyo ma’lumotlari) yoki real (Big Data qayta ishlash natijasi) qiymatga ega bo‘lishi, bu ma’lum huquqiy munosabatda muayyan axborotning qiymati tor yo‘naltirilgan xarakterga egaligidan dalolat beradi;

3. ekvivalent almashish xususiyati;

4. Big Datani yig‘ish va qayta ishlash imkoniyati zarur quvvatlarga ega bo‘lgan muayyan subyektlar doirasi bilan cheklangan, bu esa shu kabi ma’lumotlarga o‘ziga xos cheklangan ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Dissertatsiyada Big Dataga nisbatan *mulk huquqi doktrinasidagi* yangi yondashuv *(Raqamli aktiv)* asosida alohida ilmiy tadqiq qilingan. Tadqiqotchi tomonidan Big Data o‘zida iqtisodiy qiymatni mujassamlashtirgan raqamli resurs sifatida **raqamli aktiv** sifatida baholanishi mumkinligiga urg‘u berilgan. Mazkur qarashlar bugungi kunga kelib xorijiy olimlar (Julie Cohen, Catherine Jasserand, Viktor Mayer-Schönberger, V.Lopatin, M.Rozkova) tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Dissertant ham xorijiy olimlarning qarashlarini qo‘llab quvvatlagan holda Big Datani raqamli aktiv sifatida talqin qiladi hamda mazkur yo‘nalishdagi quyidagi belgilari tahlil qiladi:

*a) raqamli shakl;*
*b) moddiy-ashyoviy shaklning yo‘qligi;*
*c) real yoki potensial qiymatning mavjudligi;*
*d) ma’lumotlar aylanish imkoniyati;*
*e) maxsus texnik qurilmalar (SI)* yordamida amalga oshiriladi.

Ilmiy ishda Big Data, ayniqsa, biznes faoliyatida mijozlar haqidagi ma’lumotlar, algoritmik tahlillar, statistik ma’lumotlar va boshqa operatsion axborotlarni o‘z ichiga olgan holatlarda, **tijorat siri sifatida** huquqiy himoyaga ega bo‘lishi mumkinligi, bunda muhim shart sifatida Big Data ustidan egasi tomonidan maxfiylik rejimi o‘rnatilgan bo‘lishi, ya’ni unga kirish cheklangan va sir saqlash chorasi ko‘rilgan bo‘lishi kerakligi qayd etilgan. Ma’lumki, muayyan doiradagi axborotlarga nisbatan tijorat siri rejimini qo‘llash mumkin, vaholanki har qanday Big Data natijasiga nisbatan mazkur rejim qoidalarini qo‘llab bo‘lmaydi. Dissertant fikricha quyidagi asoslarga muvofiq Big Dataga nisbatan tijorat siri rejimini to‘liq ravishda qo‘llab bo‘lmaydi:

1. *oshkor qilinmagan bo‘lishi* (Big Data ko‘pincha jamoat manbalari (ijtimoiy tarmoqlar, davlat statistikasi, ochiq APIlar)dan yig‘iladi hamda Ochiq manbadan olingan ma’lumot sir bo‘lishi mumkin emas);
2. *maxfiylikni saqlash bo‘yicha choralar ko‘rilgan bo‘lishi (*Big Datada subyekt ko‘pincha maxfiylikni rasmiy rasmiylashtirmagan yoki himoya choralari ko‘rmagan bo‘ladi).

Muallif Big Datani nomoddiy obyekt sifatida qayd etib, unga nisbatan *raqamli aktiv* sifatidagi yondashuvini qo‘llab quvvatlagan holda Big Datani intellektual mulkning boshqa (noan’anaviy) obyektlar guruhidan joy olishi lozimligini ta’kidlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Big Datani fuqarolik huquqiy tartibga solish mexanizmlari”** deb nomlanib, ushbu bobda Big Datani shartnomaviy-huquqiy tartibga solish, intellektual mulk huquqi instituti qoidalarini qo‘llash hamda Big Data orqali yetkazilgan zararni qoplash masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan Big Dataga oid *Ma’lumot almashish shartnomalari (Data sharing agreements), Ma’lumotlarni litsenziyalash shartnomalari, Ma’lumotlardan foydalanish va xizmat ko‘rsatish shartnomalari (Service Level Agreement, SLA), Ma’lumotlarni transfer qilish (o‘tkazish) shartnomalari,*

*Axborotlarini tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnoma (Non-disclosure agreement, NDA) va Ma’lumotlarni ishlash shartnomasi (Data Processing Agreement - DPA)* kabi yangi turdagi majburiyatning alohida turlarining huquqiy belgilari sanab chiqilgan. Bunda shartnoma mazmuni, ya’ni taraflarning huquq va majburiyatlari Yevropa Ittifoqining Raqamli kontent va xizmatlar to‘g‘risidagi Direktivasi, Data Act, AQSHdagi Uniform Commercial Code, Germaniyaning Fuqarolik kodeksidagi qoidalar asosida qiyosiy-huquqiy talqin qilindi. Dissertatsiyada Big Data shartnomasi shartlari buzilganda, umumiy shartnoma huquqida ko‘zda tutilgan javobgarlik mexanizmlari ishga tushishi, bunda zararni qoplash, shartnomani bir tomonlama bekor qilish, majburiy ijro hamda uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik kabi choralar qo‘llanilishi mumkinligi belgilangan.

Big Data jarayonlariga intellektual mulk huquqi instituti qoidalari qo‘llash masalasi yuzasidan uni *a) mualliflik huquqi obyekti sifatida himoya qilish; b) ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish; c) patent huquqi; d) tijorat siri rejimi* kabi yo‘nalishlarda tahlil qilindi.

Ilmiy ishda Big Dataga nisbatan ***mualliflik huquqi rejimini*** qo‘llash noto‘g‘ri yechim sifatida talqin qilindi. An’anaviy intellektual mulk huquqi asosan ijodiy faoliyat natijalari (asarlar, ixtirolar, dizaynlar va h.k.) hamda individualizatsiya vositalarini (firma nomi, tovar belgisi kabi) himoya qiladi. Big Data esa ko‘pincha ijodiy asar emas, balki faktlar majmui, kuzatuv natijalari, sensor ma’lumotlari va shunga o‘xshash tizimlashmagan, xom ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. **Feist v. Rural** ishi yuzasidan oddiy faktlar mualliflik huquqi bilan himoyalanmaydi. Shu bois, katta raqamli ma’lumotlar to‘plamining o‘zi (agar u mualliflik huquqi nuqtai nazaridan original tuzilishga ega bo‘lmasa) bevosita mualliflik huquqi obyekti bo‘la olmaydi. Oqibatda tadqiqotchi tomonidan Big Data mualliflik huquqining asosiy ustunlari sanalmish *“ijodiylik”* va *“o‘ziga xoslik” (originality)* talablariga javob bera olmaydi, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyada Big Dataga nisbatan ***ma’lumotlar bazasi huquqi rejimini*** qo‘llashga oid muhokamalar aks etgan. Bunda Big Data tarkibidagi ma’lumotlar bazasi yoki to‘plam tanlanishi yoki tartibga solinishi bo‘yicha ijodiy xususiyatga ega bo‘lsa, u holda u ma’lumotlar bazasi huquqi bilan himoyalanadigan kompilyatsiya (to‘plam asari) bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi tomonidan ma’lumotlar bazasi sifatida “obyektiv shaklda ifodalangan, EHM yordamida topish va ishlov berish mumkin bo‘lgan tarzda tizimlashtirilgan ma’lumotlar majmui” sifatida himoya qilinishi,lekin Big Data ko‘pincha ijodiy tanlovsiz, avtomatik tarzda tizimlashtirilmagan (noSQL) ma’lumotlar asosida ham to‘planishi mumkinligi, shu sababli ham ma’lumotlar bazasi yoki mualliflik huquqi bunday Big Dataning tarkibiga nisbatan himoya huquqini bermaydi, chunki unda mualliflik uchun zarur bo‘lgan original ijodiylik xususiyati mavjud emasligi bilan ifodalanadi. Muallif tomonidan shu asosida **Big Dataning oddiy ma’lumotlar bazasi (database)dan** quyidagi farqli tomonlari e’tirof etilgan:

*Ma’lumot hajmi:* odatda o‘lchami chegaralangan va tizimlashgan (ya’ni, oldindan belgilangan jadval va ustunlar ko‘rinishida bo‘ladi). Masalan, mijozlar ro‘yxati, mahsulotlar katalogi, bankdagi tranzaksiyalar sanalsa, Big Datada juda katta, murakkab va doimiy o‘sib boruvchi ma’lumotlar to‘plami bo‘lib, an’anaviy

MB tizimlari orqali boshqarish qiyin. Bu ma’lumotlar turli manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, IoT qurilmalar, video yozuvlar, sensorlar va boshqalar) keladi.

*Ma’lumotlar strukturasi:* databaseda asosan strukturali ma’lumotlar bilan ishlaydi – ya’ni, aniq shaklga ega bo‘lgan, jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlar tashkil qilsa, BDda strukturali, yarim strukturali (masalan, *XML, JSON fayllar*) va strukturalanmagan (masalan, matnlar, videolar, rasmlar) ma’lumotlarni ham qamrab oladi.

*Texnologiyalar:* an’anaviy ma’lumotlar bazalari uchun SQL (Structured Query Language) asosiy vosita hisoblanadi. Big Data uchun esa *NoSQL tizimlar, Hadoop, Spark, Cassandra, MongoDB, Hive* kabi texnologiyalar qo‘llaniladi. Bu tizimlar katta raqamli ma’lumotlarni parallel tarzda qayta ishlashga mo‘ljallangan. Shu sababli Big Data sifatida qayd etish uchun u albatta ML yoki TDM jarayonlarini o‘z ichiga oladigan SI yordamida ishlaydigan bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyada xizmat, tijorat sirlari hamda ishlab chiqarish sirlari kabi “maxfiy axborot”larga nisbatan *“mutlaq huquqlar rejimi”i* qo‘llaniladi. Big Data natijalari barcha uchun foydalanishga yo‘l qo‘yilishi mezoni hisobiga Big Dataga nisbatan *Nou-xau himoya (tijorat siri)* mexanizmini qo‘llash maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi ixtirochilik talabi, shuningdek, yangilik, sanoatga tatbiq etish, aqliy ijodiylik va yetarli oshkor etish kabi shartlarni bajarish juda qiyin yoki imkonsiz bo‘lganligi bois Big Dataga nisbatan *Patent huquqi rejimini* qo‘llash maqsadga muvofiq emas, degan qarashni ilgari surgan. Shu nuqtai nazardan Big Data munosabatlariga nisbatan hamda uni himoya qilish uchun ***maxsus sui generis ma’lumotlar bazasi huquqi rejimi*** joriy etish eng maqbul yechim bo‘lishi mumkin, chunki mavjud huquqiy vositalardan hech biri bunday natijalarni to‘liq himoya qila olmaydi.

Ishda an’anaviy delikt huquqidagi sababiyat (kauzalitet) tamoyilini qo‘llash Big Data sharoitida murakkablashib, bir nechta aybdorlar o‘rtasida javobgarlikni taqsimlash masalasi ochiq qolishi mumkinligi hamda Big Data natijasida yetkazilgan zarar moddiy jihatdan aniqlanmasligi yoki “mavhum” bo‘lishi bilan ifodalangan. Dissertatsiyada shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini himoya qilishda hamda Sun’iy intellekt va algoritmlarning javobgarligi yo‘nalishlarida yetkazilgan zarar va uni qoplash usullari haqida huquqiy qarashlar AQShdagi **Clearview AI** ishi hamda Buyuk Britaniyada **Lloyd v. Google** ishlari misolida yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Katta raqamli ma’lumotlarni (Big Data) himoya qilishning xorijiy tajribasi hamda takomillashtirish masalalari”** deb nomlanib, unda Big Datani fuqarolik-huquqiy himoya qilish usullari, xorijiy mamlakatlar qonunchiligida huquqiy tartibga solinish masalalari hamda Big Dataga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.

Ilmiy ishda Big Data texnologiyalari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solish uchun an’anaviy huquqiy usullarga qo‘shimcha ravishda, zamonaviy noyurisdiksiyaviy (huquqiy bo‘lmagan, lekin xavfsizlik va nazoratni ta’minlovchi) texnik va tashkiliy yondashuvlar tahlil qilingan.

